

## TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDA DIDAKTIK USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Ilmiy rahbar:*  
**Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li**  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*o'qituvchisi, O'zbekiston*  
*fakhriiddinomukhammad0@gmail.com*  
**Toshpulatova Umeda Toxirovna**  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*  
*San'atshunoslik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san'at va muhandislik grafikasida didaktik usullardan samarali foydalanib, ta'lim jarayoni sifatini yanada oshirish to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *didaktika, ta'lim-tarbiya, prinsip, ijodkorlik, nazariy va amaliy yondashuv, bilim, malaka, ko'nikma.*

Ta'lim jarayonida didaktik uslubdan foydalanish to'g'risida fikr yuritishdan oldin didaktikaning o'zi qanday uslub ekanligi haqida so'z yuritamiz. "Didaktika"- yunoncha "tarbiyalayman" ma'nosini anglatib, pedagogik masalalarni to'laqonli ifoda etadi. Shuningdek, o'quvchilarga oson, qisqa, asosli bilim- malaka berish tizimi sifatida xizmat qiladi. Maktablarda har bir dars o'qituvchilar tomonidan didaktik uslubga asoslangan qonun-qoidalar asosida tashkil etilishi kerak. Ta'lim jarayonining ham asosiy vazifasi ham o'quvchilarga bilim va malakalarni berilishi, ilmiy asosda, tushunarli tarzda o'qitish tizimini o'z ichiga oladi. Aynan tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarida o'qitish jarayonida, ham dars vaqtida mavzularni bir-biriga va boshqa o'quv fanlari bilan bog'langan holda o'qitishni ifoda etadi. Bunda didaktik uslubdan foydalanish o'qitish sifatini oshirib boradi. Ammo tasviriy san'at o'qituvchilarining kam qismi bu jarayonni biladi va amalgalashadi. Buning asosiy sababi, birinchidan o'qituvchi bu jarayonni tashkil etish uchun bugungu maktablarning ba'zilarida tasviriy san'at o'quv fani uchun didaktik materiallar va natura fondi yo'q. Ikkinchidan, tasviriy san'at o'quv fanini dastur talabida o'qitish uchun tasviriy san'at kabinetini bo'lishi shart. Shu boisdan mакtabda tasviriy san'at o'quv predmetini o'qitish uchun ish boshlayotgan o'qituvchi birinchi o'rinda mакtabda Davlat ta'lim standarti va dasturi talabiga javob bera oladigan tasviriy san'at kabinetini tashkil etib, uni didaktik materiallar va natura fondi bilan ta'minlashga kirishish kerak. Maktebdagi tasviriy san'at kabinetini undagi didaktik materiallar bazasi o'quvchilarga yangi darsga tayyorlashda, o'qituvchiga darsni tashkil etishdagi didaktik jarayonning samarali bo'ishida yaxshigina shart-sharoit va imkoniyat yaratса, o'quvchilarning yangi dars materialini qabul qilishdagi faoligini va qiziqishni ham oshiradi.

Y.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asaridagi didaktikaning prinsiplaridan tashqari boshqa olimlar tavsiya qilgan o'qitish prinsiplarining soni va mazmuni

xususida hozirgacha bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Didaktik prinsiplar 6 tadan 11 tagacha bo‘lib, didaktik olimlar o‘zlarining tavsiyalarini taklif qilgan. Y.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo‘nalishi – optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqdi va u orqali 3 ta prinsipni taklif qildi. Didaktik prinsiplariga quyidagilar kiradi:

1. O‘qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsipi.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik.
3. Ta‘limning amaliy hayot bilan bog‘lanishi.
4. Onglilik va faollik.
5. Ko‘rsatmalilik.
6. Tushunararlilik.
7. Puxtalik.

O‘qitish didaktikasining prinsipi - tasviri san’at o‘qituvchining ijodkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishini ham talab qiladi. Chizmachilik fanining ham o‘qitilishida o‘quvchilardagi fazoviy tasavvurni shakllantirish orqali predmetni tushunarli tarzda yetkazib berishini ta’minlaydi. O‘quvchilardagi faollikni oshirish uchun mutaxasis o‘qituvchi tomonidan turli jumboqli o‘yinlarni tashkil etilishi lozim. Rasm chizishni ham o‘ziga xos ilmiy asosi borligini hamma yaxshi biladi. Lekin uni hamma ham ongli, ilmiy asosda o‘rgana olmaydi. Ana shu ilmiy asosni o‘rgatishni tasviy san’at o‘qituvchisi o‘zining ilmiy salohiyati, amaliy tajribalari, metodik va didaktik tayyorligi asosida amalga oshiradi.

Didaktik o‘yinlarga qo‘yiladigan talablar:

1. Didaktik o‘yinlar o‘quv predmetlari bo‘yicha dastur materialiga muvofiq yo‘sinda tanlanishi lozim.
2. Didaktik o‘yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo‘yicha ma'lum talablar qo‘yiladigan yo‘sinda ishlab chiqilishi kerak.
3. Didaktik o‘yinning muvaffaqiyatli o‘tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashiga bog‘liq. Chunki bunda o‘quvchilarning fikrini maqsadli yo‘nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug‘iladi.
4. O‘yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o‘yinlardan oldin osonroq o‘yinlarni o‘tkazib, o‘quvchilarni navbatdagi o‘yinlarga puxtarloq tayyorlash juda muhimdir. Shu tariqa tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashda mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, umumlashtirish singari aqliy operatsiyalarni asta-sekin murakkablashtirib borish shart.
5. Didaktik o‘yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (bo‘sish va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.
6. O‘yinning qoidalari sodda, aniq bo‘lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.
7. Har bir o‘quvchi butun o‘yin jarayonida faol ishtiroy etishi, o‘z "navbatini" uzoq kutish o‘yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.
8. Har bir o‘yinga umumiyligini va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Nemis pedagogi A.Disterveg didaktikasida o‘quvchilarning mustaqil ilm olishi nazariyasini oldinga suriladi. Shunga ko‘ra, u o‘quvchilarning o‘zi mustaqil bilim-malaka

olishini eng zarur va o'ta ahamiyatli ekanligini bayon qiladi. Rus pedagogi K.D.Ushinskiy esa ta'lif-tarbiyaning turli sohalari bo'yicha kuzatishlar olib bordi. U chet ellardagi maktablar tajribasini o'rganib, o'zining didaktik va metodik xulosalarini bayon etdi. K.D.Ushinskiy didaktikasining asosiy mazmunida ta'lif jarayonida bolalarning ruhiy holati va yosh xususiyatlari alohida e'tiborga olinishi lozimligi ko'rsatiladi. Shuningdek, o'qitishining didaktik prinsiplari rivojiga ulug' rus yozuvchisi L.N.Tolstoy (1829-1910) ham o'z hissasini qo'shgan. U o'quvchilarni mustaqil, faol v ajodkorlikka o'rgatishning ta'lif jarayoniga alohida e'tibor berib, ta'lifni o'quvchilar uchun qiyin ham, oson ham bo'lmasligi lozimligini ko'rsatib o'tadi. Dars materiali o'quvchiga ortiqcha qiyinchilik tug'dirsa, o'quvchi o'z kuchiga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Dars materiali o'quvchiga haddan ziyod oson bo'lsa, o'quvchini zeriktiradi va darsga qiziqishi pasayib ketishi mumkinligini eslatadi. Shuning uchun dars materiali hayotiy, qiziqarli, o'quvchini mustaqil ishslashga unday oladigan bo'lishini aytib ta'kidlaydi.

## XULOSA

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarida didaktik usullardan foydalanib, ta'lif jarayoni asosini o'stirish muhim ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Zero didaktik jarayon pedagogik texnologiyaning asosi shisoblanadi. O'quvchilarning esa bilim va malakalarni takomillashtirib, tashabbuskorlik, ijodkorlikni oshirishda xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Faxriddin o'g'li, F. M., & Toxirovna, T. U. JILVADOR RANGLARNING SOKIN NAVOSI. "INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE" BELARUS, International scientific-online conference. Part 22 March 19th COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS MINSK-2024. BELARUS. 90- 92 pages.
2. Y.A.Komenskiy. Buyuk didaktika. T., 1975, 17- bet.
3. Faxriddin, S. (2024). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 183-187.
4. N. Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiya. T., 2003, 59- bet.
5. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS – (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) - XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 785-790.
6. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA – (PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT) –XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 220-225.
7. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KESIMLAR VA ULARNI O'RGATISH METODIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 67-75.
8. B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamонавиј pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent-“Ilm ZIYO”- 2013.

9. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... Научный Фокус, 1(7), 190-193.
10. Fakhreddinov M. The impact of modern technology on education //Fan va ta'lism integratsiyasi jurnali. – C. 165-170.
11. Shodmonova, G. S. (2024). GLOBAL TIBBIYOT TERMINLARINING INNOVATSION TADQIQI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 136-139.
12. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 4(6), 108-111.
13. Zhuraev, K. K., & Kadirov, Z. K. (2021). Features of the Artistic Life of Samarkand (In the 1920s). European journal of innovation in nonformal education, 1(2), 129-131.
14. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 5(1), 16-18.
15. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58.
16. Suvankulov, S. M. (2017). Master's thesis.
17. Shodmonova, G. S. (2024). HOMILADORLAR FIZIOLOGIYASINI INTEGRASIYA ORQALI O'RGATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 103-106.
18. Teshaevich, S. F. The Role of Didactic Games in the Training of Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(10), 62-64.
19. Teshaevich, S. F. (2021). A Study of the Image of Navoi in the Works of Erkin Vahidov. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2(12), 170-172.
20. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155.
21. Shodmonova, G. S. (2022). Uzbek Interpretation of Global Medical Terms. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 1(9), 246-248.
22. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58.
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. Научный Фокус, 1(7), 46-52.
24. Fakhreddinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. Fan va ta'lism integratsiyasi jurnali, 165-170.
25. Faxriddin, S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLAR OLIB BORISH TEKNOLOGIYASI. Научный Фокус, 1(12), 214-219.

26. Shodiyev, F. (2024). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK O ‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Научный Фокус, 1(12), 220-225.
27. Faxriddin O’g’li, F. M., & Azizbekovna, M. G. (2024). MO’JAZ TASVIRDA TARIX TASNIFI. Научный Фокус, 1(12), 266-270.
28. Faxriddin o’g’li F. M. KOMPUTER VA UNING GLOBAL TA’LIMDAGI KREATIV O’RNI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 514-521.